# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**
**SENTYABR / 9-SON, V-QISM**



Milliy nashrlar


**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*

Google Scholar

INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE.

OpenAIRE



*ISSN: 3060-463X*

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TAS STOKHOLM UNIVERSITETI

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.*



**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Pardaev Umidjon Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich,** Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal


05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati


Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА К INDUSTRY 5.0 ..... 9
**Нигмонходжаев А. А.**
ИНТЕГРАЛЬНЫЙ ИНДЕКС КАЧЕСТВА АКТИВОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С УЧЁТОМ СТАДИЙ МСФО (IFRS) 9 И КЛАССИФИКАЦИОННОГО РАЗРЫВА ..... 15
**Ю Вей**
O‘ZBEKISTONNING 2026-YIL I YARIM YILLIGIDA ORGANIK SERTIFIKAT TALAB QILUVCHI MAMLAKATLARGA MEVA-SABZAVOT EKSPORTI ..... 21
**Shavqidinova Dilnavoz**
INTERNATIONAL EXPERIENCE IN FINANCING FIXED CAPITAL INVESTMENT ..... 26
**Hasanova Nargiza Okilovna**
THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF STATE PROGRAMS IN FINANCING FIXED CAPITAL INVESTMENT ..... 34
**Innaminova Naubakhar Sansizbayevna**
SANOAT VA QURILISH TARMOQLARINING O‘ZARO INTEGRATSIYASI ASOSIDA HUDUDIY IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 41
**Jo‘rayev Bobomurod Abdimuminovich**
O‘ZBEKISTONDA JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA 8-SON MHXSNI QO‘LLASHNING USLUBIY MASALALARI ..... 49
**U. A. Shirinov**

# O‘ZBEKISTONDA JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA 8-SON MHXSNI QO‘LLASHNING USLUBIY MASALALARI

**U. A. Shirinov**
SamISI, i.f.f.d., dotsent
E-mail: u_shirinov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-2146-9484

**Annotatsiya:** O‘zbekistonda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda 8-son MHXS «Operatsion segmentlar» standartini qo‘llashning nazariy va uslubiy masalalari tadqiq etilgan. Xorijiy mamlakatlarda mazkur standartni joriy etish tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, boshqaruv yondashuvi asosida operatsion segmentlarni identifikatsiya qilish, bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organni (CODM) aniqlash, segmentlarni agregatsiyalash hamda miqdoriy mezonlar asosida hisobot segmentlarini belgilashning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar, 8-son MHXS, IFRS 8, operatsion segment, hisobot segmenti, segmentar hisob, segmentar hisobot, boshqaruv yondashuvi, CODM, segment daromadi, segment xarajatlari, segment aktivlari, segment majburiyatlari, segmentlarni agregatsiyalash, moliyaviy hisobot.

**Аннотация**: Исследованы теоретические и методологические вопросы применения МСФО (IFRS) 8 «Операционные сегменты» в организациях, представляющих общественный интерес, в Узбекистане. Проведён сравнительный анализ зарубежного опыта внедрения данного стандарта, рассмотрены особенности идентификации операционных сегментов на основе управленческого подхода, определения лица или органа, ответственного за принятие операционных решений (CODM), агрегирования сегментов и выделения отчётных сегментов на основе количественных критериев.

**Ключевые слова:** организации, представляющие общественный интерес, МСФО (IFRS) 8, операционный сегмент, отчётный сегмент, сегментный учёт, сегментная отчётность, управленческий подход, CODM, доходы сегмента, расходы сегмента, активы сегмента, обязательства сегмента, агрегирование сегментов, финансовая отчётность.

**Abstract:** The theoretical and methodological aspects of applying IFRS 8 Operating Segments in public interest entities in Uzbekistan are examined. A comparative analysis of international experience in implementing the standard is conducted, with particular emphasis on identifying operating segments based on the management approach, determining the Chief Operating Decision Maker (CODM), aggregating operating segments, and identifying reportable segments based on quantitative thresholds.

**Keywords:** public interest entities, IFRS 8, operating segment, reportable segment, segment accounting, segment reporting, management approach, CODM, segment revenue, segment expenses, segment assets, segment liabilities, aggregation of operating segments, financial reporting.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kapital bozorlarining rivojlanishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining diversifikatsiyalashuvi hamda investorlar uchun moliyaviy axborot shaffofligini oshirish zarurati moliyaviy hisobotlarda segmentlar kesimidagi ma’lumotlarni ochib berishning ahamiyatini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda faoliyatning alohida yo‘nalishlari bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalarni baholash manfaatdor tomonlarning asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilishi uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Shu jihatdan, 8-son MHXS «Operatsion segmentlar» tashkilot faoliyatini boshqarish va baholashda rahbariyat tomonidan qo‘llaniladigan ichki axborot asosida operatsion segmentlarni aniqlash, hisobot segmentlarini belgilash hamda ular bo‘yicha tegishli moliyaviy axborotni ochib berishning xalqaro metodologik asoslarini belgilaydi. Mazkur standartning boshqaruv yondashuviga asoslanishi segmentar hisobot ma’lumotlarini tashkilotning amaldagi boshqaruv tuzilmasi va qaror qabul qilish mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarini MHXS talablari asosida shakllantirish amaliyotining kengayib borishi 8-son MHXSni samarali qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy masalalarni

tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, operatsion segmentlarni identifikatsiya qilish, bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organni (CODM) belgilash, segmentlarni agregatsiyalash, miqdoriy mezonlar asosida hisobot segmentlarini ajratish, segment daromadlari, xarajatlari, aktivlari va majburiyatlarini shakllantirish hamda segment ma'lumotlarini tashkilotning moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish masalalarida yagona uslubiy yondashuvlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli O'zbekiston sharoitida jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda 8-son MHXS talablarini milliy hisob amaliyotiga mos ravishda qo'llash mexanizmlarini tadqiq etish, mavjud uslubiy masalalarni aniqlash va segmentar axborotni shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarb yo'nalishini tashkil etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

8-son MHXS «Operatsion segmentlar» standartining xalqaro amaliyotda qo'llanilishi va uning moliyaviy hisobot axborotining sifatiga ta'siri xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarning asosiy qismi 14-son BHXS «Segmentlar bo'yicha hisobot» standartidan 8-son MHXSga o'tish natijasida segmentlarni identifikatsiya qilish, boshqaruv yondashuvini qo'llash, hisobot segmentlari soni, segmentlar bo'yicha ochib beriladigan axborot hajmi va uning investorlar uchun foydaliligida qanday o'zgarishlar yuz berganligini baholashga qaratilgan.

N. B. Nichols, D. L. Street va S. J. Cereola Yevropaning 14 ta fond birjasidagi yetakchi kompaniyalar misolida 8-son MHXS joriy etilishining segmentar axborotga ta'sirini o'rganganlar. Mualliflarning tadqiqot natijalariga ko'ra, 14-son BHXSdan 8-son MHXSga o'tish natijasida kompaniyalar tomonidan ochib berilgan operatsion segmentlarning o'rtacha soni sezilarli ravishda ko'paygan [1]. Bu holat 8-son MHXSning «management approach», ya'ni boshqaruv yondashuviga asoslanishi bilan izohlanadi. Bunda tashqi foydalanuvchilarga taqdim etiladigan segmentar axborot kompaniya rahbariyati faoliyat natijalarini baholash va resurslarni taqsimlashda foydalanadigan ichki boshqaruv axborotiga yaqinlashtiriladi. Mazkur natija O'zbekiston uchun ham muhim bo'lib, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentlarni nafaqat tashkiliy-huquqiy yoki geografik belgilar asosida, balki rahbariyat tomonidan amalda boshqariladigan faoliyat komponentlari asosida aniqlash zarurligini ko'rsatadi.

N. B. Nichols, D. L. Street va A. Tarca 8-son MHXS hamda AQShdagi SFAS 131 doirasida qo'llanilgan boshqaruv yondashuvi bo'yicha ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlarni umumlashtirib, ushbu yondashuvning afzalliklari va takomillashtirish imkoniyatlarini tizimlashtirganlar [2]. Mualliflar segmentlar soni, ochib beriladigan ko'rsatkichlar, segment ma'lumotlarini konsolidatsiyalashgan ko'rsatkichlar bilan muvofiqlashtirish, geografik axborot va segment ma'lumotlarining qaror qabul qilishdagi foydaliligi standart samaradorligini baholashning muhim yo'nalishlari ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning tahlili boshqaruv yondashuvining asosiy ustunligi investorlarga biznesni «rahbariyat nigohi bilan» baholash imkoniyatini berishida ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, segmentlarning chegaralarini belgilashda menejmentga berilgan imkoniyat korxonalar o'rtasidagi qiyoslanuvchanlikni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirishi mumkin.

H. Kang va S. J. Gray Avstraliya fond birjasida ro'yxatdan o'tgan 200 ta yirik kompaniya misolida 8-son MHXSning Avstraliya ekvivalenti — AASB 8 joriy etilishidan oldingi va keyingi davrlarni qiyoslaganlar [3]. Tadqiqot natijasida standart joriy etilgandan keyin hisobot segmentlari soni hamda segmentlar bo'yicha ochib beriladigan ma'lumotlar hajmi oshgani aniqlangan. Shu bilan birga, kompaniyalarning katta qismi avvalgi segmentar hisobot formatini saqlab qolgan va hisobot segmentlarini identifikatsiya qilishda sezilarli o'zgarish kuzatilmagan. Bu natija standartni normativ jihatdan joriy etish bilan bir qatorda, segmentar hisobot sifatini oshirishda korxonaning ichki boshqaruv hisobi tizimini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

M. Bugeja, R. Czernkowski va D. Moran ham Avstraliya kompaniyalari misolida boshqaruv yondashuvining segmentar hisobotga ta'sirini chuqurroq tadqiq qilganlar [4]. Ularning xulosalariga ko'ra, 8-son MHXSning qo'llanilishi hisobotda aks ettiriladigan segmentlar sonining ortishiga olib kelgan, shu bilan birga, segmentlar bo'yicha alohida ko'rsatkichlarni ochib berish hajmi ayrim holatlarda qisqargan. Tadqiqotchilar segment ma'lumotlarini oshkor qilish darajasiga agentlik xarajatlari bilan bog'liq omillar ta'sir ko'rsatishini, tijorat siri yoki raqobatga ta'sir etish omili esa nisbatan cheklangan izohlash kuchiga ega ekanligini aniqlaganlar [4]. Demak, 8-son MHXS asosida segmentlar sonining ko'payishi bilan bir qatorda, axborotning barcha yo'nalishlar bo'yicha batafsilligini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

P. Kajüter va M. Nienhaus Germaniyaning birjada ro'yxatdan o'tgan kompaniyalari ma'lumotlari asosida 8-son MHXS bo'yicha shakllantirilgan segmentar hisobotning investorlar uchun foydaliligini tadqiq qilganlar [5]. Mualliflar 14-son BHXS va 8-son MHXS bo'yicha shakllantirilgan segmentar ma'lumotlarning qiymatga aloqadorligini (value relevance) qiyoslab, 8-son MHXS bo'yicha taqdim etilgan segmentar axborotning qiymatga

aloqadorligi yuqoriroq ekanligini aniqlaganlar. Shuningdek, standartning joriy etilishi axborot assimetriyasining pasayishi bilan bog‘liq ekanligi qayd etilgan. Bu natijalar segmentar axborot nafaqat hisobotni batafsillashtirish vositasi, balki investorlarning kompaniya qiymatini baholash imkoniyatini oshiruvchi axborot vositasi ekanligini ko‘rsatadi.

G. H. Mardini Iordaniya kompaniyalari misolida 8-son MHXSning rivojlanayotgan davlat sharoitida qo‘llanilishini o‘rgangan [6]. Tadqiqotda standartni joriy etish jarayoni auditorlar, hisobot tuzuvchilar va foydalanuvchilar uchun texnik jihatdan qulay kechgani, segmentar ma’lumotlar hajmi oshgani, axborot yanada tartibli va tushunarli shaklda taqdim etila boshlagani hamda segmentar hisobot shaffofligi yaxshilangani aniqlangan. Iordaniya tajribasi O‘zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega, chunki rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda 8-son MHXSni samarali qo‘llash standartni milliy tizimga kiritish bilan bir qatorda, ichki boshqaruv hisobini ham tegishli ravishda tashkil etishni talab qiladi.

G. H. Mardini va hammualliflar keyingi tadqiqotlarida Iordaniya va Qatar kompaniyalarida 8-son MHXS bo‘yicha segmentar axborotning kapital bozori uchun ahamiyatini o‘rganganlar [7]. Ohlson modeli, regressiya tahlili, ANOVA va Kruskal–Wallis testlari asosida amalga oshirilgan tahlil segmentar axborotni ochib berish darajasi iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha farqlanishini ko‘rsatgan. Eng muhimi, segmentlar soni va ochib berilgan segmentar ma’lumotlar hajmi kompaniyalar aksiyalari narxlaridagi o‘zgarishlarni tushuntirishda statistik ahamiyatga ega bo‘lgan [7]. Mualliflar rivojlanayotgan davlatlarda 8-son MHXS talablariga rioya qilinishi ustidan tartibga soluvchi organlar tomonidan monitoring olib borish muhimligini alohida qayd etadilar.

P. Farías va R. Rodríguez Ispaniya kompaniyalarida 8-son MHXSning boshqaruv yondashuvi segmentar hisobot sifatini qay darajada yaxshilaganligini o‘rganganlar [8]. Tadqiqot natijalari bir qator kompaniyalarda segmentlar bo‘yicha ma’lumotlarni ularning amaldagi tashkiliy-boshqaruv tuzilmasiga yanada muvofiqlashtirish hamda 8-son MHXS joriy etilgandan keyin qo‘shimcha segmentar axborotni taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatgan. Bundan tashqari, kompaniya hajmi qo‘shimcha segment ma’lumotlarini oshkor qilish ehtimoli bilan statistik jihatdan bog‘liq bo‘lgan [8]. Ispaniya tajribasi standartning prinsiplarga asoslangan xususiyati sababli professional mulohaza va nazorat mexanizmlarining alohida ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

M. Lucchese va F. Di Carlo Italiyada 2008–2012-yillar davomida birjada ro‘yxatdan o‘tgan kompaniyalarni o‘rganib, 8-son MHXS joriy etilishidan keyin segmentar axborot hajmida 14-son BHXS davriga nisbatan o‘zgarishlar cheklangan darajada bo‘lganligini aniqlaganlar [9]. Fixed-effects regressiya modeli asosidagi natijalar segmentar axborotni ochib berish darajasiga kompaniyaning o‘sish sur’ati, hajmi, rentabelligi va mulkchilik tuzilmasi kabi omillar ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan. Ushbu holat 8-son MHXSning natijadorligi standart talablariga rioya etish bilan bir qatorda, mamlakatdagi korporativ boshqaruv muhiti va korxonalarning axborotni oshkor qilish siyosatiga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

S. J. Cereola va J. Dynowska Polshada Varshava fond birjasida ro‘yxatdan o‘tgan 275 ta yirik kompaniyaning yillik hisobotlari asosida 8-son MHXSning joriy etilishi va undan keyingi yetti yillik davrni tadqiq qilganlar [10]. Natijalar 8-son MHXSning joriy etilishi segmentar axborotning ayrim jihatlarini yaxshilaganligini ko‘rsatgan. Jumladan, IAS 14R qo‘llanilgan 2008-yilda 83 ta kompaniya (30 foiz) o‘zini bitta segmentli tashkilot sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa, 2009-yilda 8-son MHXS joriy etilgach, bu ko‘rsatkich 62 taga (22 foiz) tushgan. Mualliflar yetti yil o‘tgach ham ayrim axborotlarni, ayniqsa, muvofiqlashtirish (reconciliation) va geografik segmentlar bo‘yicha ma’lumotlarni ochib berish amaliyotini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini aniqlaganlar [10].

Shuningdek, S. J. Cereola, N. B. Nichols va D. L. Street Yevropa, Avstraliya va Yangi Zelandiyaning yetakchi kompaniyalari misolida 8-son MHXSning joriy etilishi natijasida geografik segmentlar bo‘yicha axborotni ochib berish amaliyotidagi o‘zgarishlarni o‘rganganlar [11]. Tadqiqotda kompaniyaning ro‘yxatdan o‘tgan mamlakati hamda muhim xorijiy mamlakatlar bo‘yicha tushumlarni ochib berish, «muhim mamlakat»ni belgilashda qo‘llaniladigan muhimlik darajasi va geografik axborotning batafsillik darajasi tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot 8-son MHXSni O‘zbekistonda qo‘llashda geografik segmentlar bo‘yicha axborotni shakllantirish mezonlarini ham aniq uslubiy tartibga solish muhimligini ko‘rsatadi.

Umuman, xorijiy tadqiqotlarning qiyosiy tahlili 8-son MHXSni qo‘llash natijalari mamlakatlar kesimida turlicha bo‘lganligini ko‘rsatadi. Yevropa kompaniyalarida operatsion segmentlar sonining ortishi [1], Avstraliyada segmentlar soni va ochib beriladigan axborot hajmining ko‘payishi [3], Germaniyada segmentar axborotning qiymatga aloqadorligi oshishi va axborot assimetriyasining kamayishi [5], Iordaniya va Qatarda segmentar axborotning kapital bozori uchun ahamiyatli ekanligi [6; 7] standartning ijobiy natijalarini tasdiqlaydi. Ayni paytda Ispaniya [8], Italiya [9] va Polsha [10] tajribasi standartni joriy etish bilan bir qatorda, barcha tashkilotlarda segmentar axborot sifatini izchil oshirishga qaratilgan qo‘shimcha uslubiy va tashkiliy mexanizmlarni rivojlantirish muhimligini ko‘rsatmoqda.

Shundan kelib chiqib, O‘zbekistonda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda 8-son MHXSni qo‘llashda xorijiy tajribani milliy hisob amaliyotiga moslashtirish hamda «operatsion segmentni identifikatsiya qilish →


bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organni (CODM) aniqlash → ichki boshqaruv hisobotlari bilan bog‘lash → agregatsiyalash mezonlarini qo‘llash → miqdoriy mezonlar asosida hisobot segmentlarini aniqlash → segment ko‘rsatkichlarini shakllantirish → moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish → axborotni ochib berish» ketma-ketligiga asoslangan yagona uslubiy mexanizmni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Xorijiy tadqiqotlarda aniqlangan tafovutlar O‘zbekiston sharoitida 8-son MHXSni tan olish va joriy etish bilan bir qatorda, uning boshqaruv yondashuvini tashkilotlarning amaldagi buxgalteriya hisobi, boshqaruv hisobi va ichki hisobot tizimiga samarali integratsiya qilish ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasini shakllantirishda tizimli, qiyosiy va mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya, guruhlash, umumlashtirish hamda iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida O‘zbekistonda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda 8-son MHXS «Operatsion segmentlar» standarti talablarini qo‘llashning amaldagi holati xalqaro tajriba bilan qiyosiy o‘rganilib, operatsion segmentlarni identifikatsiya qilish, bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organ (CODM) tomonidan muntazam ko‘rib chiqiladigan ichki boshqaruv axborotini aniqlash, iqtisodiy xususiyatlari o‘xshash segmentlarni agregatsiyalash hamda hisobot segmentlarini ajratish jarayonlari tadqiq etildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, 8-son MHXS «Operatsion segmentlar» standartini milliy amaliyotga samarali joriy etish faqat standart talablarini normativ-huquqiy jihatdan qabul qilish bilan cheklanmaydi, balki o‘zaro bog‘liq tashkiliy, uslubiy va institutsional chora-tadbirlarni amalga oshirishni ham talab etadi. Xususan, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Avstraliya, Germaniya, Polsha, Ispaniya va Iordaniya tajribasida standartni qo‘llash mexanizmi milliy normativ bazani xalqaro talablarga muvofiqlashtirish, operatsion segmentlarni aniqlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqish, hisobot tuzuvchilar va auditorlarning kasbiy salohiyatini oshirish, standartni bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etish, uning bajarilishini monitoring qilish hamda aniqlangan masalalar asosida amaliyotni muntazam takomillashtirib borish kabi bosqichlarni qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy davlatlarda shakllangan tajribalarni tizimlashtirish O‘zbekistonda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda 8-son MHXSni qo‘llashning samarali uslubiy mexanizmini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi (1-rasm).




1-rasm. 8-son MHXS «Operatsion segmentlar» standartini xorijiy davlatlarda joriy etishning tashkiliy-uslubiy

mexanizmi

1-rasmda 8-son MHXSni xorijiy davlatlar amaliyotiga joriy etish jarayoni o‘zaro bog‘liq yettita asosiy bosqich doirasida tizimlashtirilgan. Birinchi bosqichda standartni qo‘llash bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilinib, milliy qonunchilik va moliyaviy hisobotning normativ bazasi MHXS talablariga muvofiqlashtiriladi. Ikkinchi bosqichda standartning majburiy qo‘llanish doirasi va tegishli tashkilotlar belgilanadi. Keyingi bosqichlarda operatsion segmentlarni identifikatsiya qilish, bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organni (CODM) aniqlash, segmentlarni agregatsiyalash, miqdoriy mezonlar asosida hisobot segmentlarini ajratish va segmentar axborotni ochib berishga doir uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqish nazarda tutiladi. Bunda tartibga soluvchi organlar, auditorlik tashkilotlari va professional buxgalterlar institutlari o‘rtasidagi institutsional hamkorlik, mutaxassislarni o‘qitish hamda tashkilotlarning ichki boshqaruv hisobi tizimini 8-son MHXS talablariga moslashtirish standartni samarali qo‘llashning muhim shartlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili 8-son MHXSni joriy etishda mamlakatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi turli modellar shakllanganligini, ularning mexanizmlari mamlakatning moliyaviy hisobotni tartibga solish tizimi, kapital bozorining rivojlanish darajasi va korporativ boshqaruv xususiyatlariga qarab farqlanishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqida normativ integratsiya va kapital bozori talablari, Avstraliyada AASB 8 orqali milliy standartlashtirish, Germaniya va Ispaniyada tartibga soluvchi hamda nazorat institutlarining ishtiroki, Polsha va Iordaniyada esa standartni amaliy qo‘llash natijalarini monitoring qilish tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar 8-son MHXS «Operatsion segmentlar» standartini jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar amaliyotiga tatbiq etish uchun zarur institutsional va normativ shart-sharoitlarni shakllantirmoqda. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzishga o‘tishi ularning faoliyati to‘g‘risidagi axborotning shaffofligi, qiyoslanuvchanligi va investorlar uchun foydaliligini oshirish bilan bir qatorda, segmentlar kesimida axborot shakllantirishga bo‘lgan talabni ham kuchaytiradi. Shu bilan birga, 8-son MHXSni amaliyotga tatbiq etish moliyaviy hisobotda segmentlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ochib berish bilan bir qatorda, tegishli boshqaruv va hisob jarayonlarini ham qamrab oladi. Buning uchun tashkilotning ichki boshqaruv tuzilmasi va hisobot tizimidan kelib chiqib, bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organni (CODM) aniqlash, ushbu shaxs yoki organ tomonidan muntazam ko‘rib chiqiladigan faoliyat komponentlarini operatsion segment sifatida identifikatsiya qilish, iqtisodiy xususiyatlari o‘xshash segmentlarni agregatsiyalash hamda 10 foizlik miqdoriy mezonlar va 75 foizlik tashqi daromad talabi asosida hisobot segmentlarini belgilash talab etiladi. Shu sababli O‘zbekistonda standartni samarali qo‘llash buxgalteriya hisobi bilan bir qatorda, boshqaruv hisobi va ichki hisobot tizimini ham 8-son MHXSning boshqaruv yondashuviga muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston amaliyotida 8-son MHXSni joriy etish jarayonida bir qator uslubiy masalalarni takomillashtirish zarurati mavjud. Jumladan, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda operatsion segmentlarni aniqlashning yagona amaliy algoritmini shakllantirish, segment daromadlari va xarajatlarini identifikatsiya qilish, bilvosita va umumkorporativ xarajatlarni asoslangan holda taqsimlash, segment aktivlari va majburiyatlarini belgilash, segmentlararo operatsiyalarni hisobga olish va eliminatsiya qilish hamda segment ko‘rsatkichlarini tashkilotning umumiy moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish muhim hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda 8-son MHXSni joriy etish mexanizmini «normativ-huquqiy ta’minot → operatsion segmentlarni identifikatsiya qilish → CODM va ichki hisobot tizimini belgilash → segment ko‘rsatkichlarini shakllantirish → hisobot segmentlarini ajratish → segmentar axborotni ochib berish → moliyaviy hisobot bilan muvofiqlashtirish → monitoring va takomillashtirish» ketma-ketligida tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur mexanizmning amaliyotga tatbiq etilishi jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar hisob va hisobotning uslubiy yaxlitligini ta’minlash, moliyaviy axborot shaffofligini oshirish hamda investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishi uchun zarur axborot bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari 8-son MHXS «Operatsion segmentlar» standartini jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda samarali qo‘llash moliyaviy hisobotning shaffofligi va axborotning foydaliligini oshirishning muhim shartlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Xorijiy davlatlar tajribasi standartni joriy etishda boshqaruv yondashuviga asoslanish, operatsion segmentlarni tashkilotning amaldagi boshqaruv tuzilmasidan kelib chiqib identifikatsiya qilish hamda ichki boshqaruv axborotini tashqi segmentar hisobot bilan uyg‘unlashtirish muhimligini tasdiqlaydi. O‘zbekiston amaliyotida esa 8-son MHXSni qo‘llashda operatsion segmentlarni aniqlash, CODMni belgilash, segmentlarni agregatsiyalash, segment daromadlari, xarajatlari, aktivlari va majburiyatlarini shakllantirish hamda ularni umumiy moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish bo‘yicha uslubiy yondashuvlarni yanada

rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli standartni qo‘llashni moliyaviy hisobotni tuzish jarayoni bilan bir qatorda, boshqaruv hisobi, ichki hisobot va tashqi moliyaviy hisobotni o‘zaro integratsiyalovchi yaxlit tizim sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, birinchidan, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar uchun «8-son MHXS asosida operatsion segmentlarni aniqlash va segmentar axborotni shakllantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar» ishlab chiqish taklif etiladi. Unda CODMni aniqlash, operatsion segmentlarni identifikatsiya qilish va agregatsiyalash, 10 foizlik miqdoriy mezonlar va 75 foizlik tashqi daromad talabini qo‘llash, segment daromadlari, xarajatlari, aktivlari va majburiyatlarini aniqlash hamda segment ma’lumotlarini moliyaviy hisobot bilan muvofiqlashtirishning yagona algoritmi belgilanishi lozim. Ikkinchidan, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning buxgalteriya axborot tizimlarida «segment kodi – faoliyat yo‘nalishi – geografik hudud – daromad/xarajat – aktiv/majburiyat» analitik bog‘lanishiga asoslangan segmentar hisob modulini joriy etish taklif qilinadi. Ushbu modul orqali birlamchi operatsiyadan boshlab tegishli segment kodini avtomatik biriktirish, segmentlararo operatsiyalarni alohida identifikatsiya qilish va eliminatsiya qilish hamda IFRS 8 bo‘yicha talab etiladigan segment ko‘rsatkichlarini avtomatik shakllantirish maqsadga muvofiq. Mazkur ikki taklif 8-son MHXSni O‘zbekiston amaliyotiga tatbiq etishning uslubiy yaxlitligini ta’minlash, professional mulohazalarning izchilligini oshirish va segmentar hisobotning ishonchliligi hamda qiyoslanuvchanligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Qo‘shimcha amaliy takliflar:

1. CODM faoliyatini hujjatlashtirish. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda operatsion qarorlar qabul qilish va segmentlar faoliyatini baholash jarayonlarini ichki me’yoriy hujjatlar asosida tartibga solish.

2. Segmentar hisobot monitoringini joriy etish. Segmentlar bo‘yicha axborotning to‘liqligi, ishonchliligi va MHXS talablariga muvofiqligini muntazam baholash tizimini shakllantirish.

3. Mutaxassislar malakasini oshirish. Buxgalterlar, auditorlar va moliyaviy menejerlar uchun 8-son MHXSni amaliy qo‘llash bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini tashkil etish.

4. Raqamli integratsiyani rivojlantirish. Segmentar hisob ma’lumotlarini tashkilotning ERP tizimlari va moliyaviy hisobot platformalari bilan integratsiyalash orqali axborotni shakllantirish jarayonlarini avtomatlashtirish.

5. Segmentar axborotning shaffofligini oshirish. Segmentlar bo‘yicha ochib beriladigan ko‘rsatkichlarni standart talablariga muvofiq shakllantirish hamda ularning investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun tushunarliligini ta’minlash.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. Nichols N. B., Street D. L., Cereola S. J. An analysis of the impact of adopting IFRS 8 on the segment disclosures of European blue chip companies // Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. – 2012. – Vol. 21, No. 2. – P. 79–105. – DOI: 10.1016/j.intaccaudtax.2012.07.001.
2. Nichols N. B., Street D. L., Tarca A. The impact of segment reporting under the IFRS 8 and SFAS 131 management approach: A research review // Journal of International Financial Management & Accounting. – 2013. – Vol. 24, No. 3. – P. 261–312. – DOI: 10.1111/jifm.12012.
3. Kang H., Gray S. J. Segment reporting practices in Australia: Has IFRS 8 made a difference? // Australian Accounting Review. – 2013. – Vol. 23, No. 3. – P. 232–243. – DOI: 10.1111/j.1835-2561.2012.00173.x.
4. Bugeja M., Czernkowski R., Moran D. The impact of the management approach on segment reporting // Journal of Business Finance & Accounting. – 2015. – Vol. 42. – P. 310–366. – DOI: 10.1111/jbfa.12102.
5. Kajüter P., Nienhaus M. The impact of IFRS 8 adoption on the usefulness of segment reports // Abacus. – 2017. – Vol. 53, No. 1. – P. 28–58. – DOI: 10.1111/abac.12105.
6. Mardini G. H. The impact of IFRS 8 on segmental reporting by Jordanian listed companies: An analysis of disclosure practices and some stakeholders’ perceptions : PhD thesis. – University of Dundee, 2012.
7. Mardini G. H. The extent of segmental reporting and its value relevance: Cross-country evidence // Journal of Accounting in Emerging Economies. – 2018. – Vol. 8, No. 2. – P. 279–299. – DOI: 10.1108/JAEE-05-2017-0061.
8. Farías P., Rodríguez R. Segment disclosures under IFRS 8’s management approach: Has segment reporting improved? // Spanish Journal of Finance and Accounting / Revista Española de Financiación y Contabilidad. – 2015. – Vol. 44, No. 2. – P. 117–133. – DOI: 10.1080/02102412.2014.987445.
9. Lucchese M., Di Carlo F. The impact of IFRS 8 on segment disclosure practice: Panel evidence from Italy // International Journal of Accounting and Financial Reporting. – 2016. – Vol. 6, No. 1. – P. 96–126. – DOI: 10.5296/ijafr.v6i1.9239.
10. Cereola S. J., Dynowska J. The impact of IFRS 8, segment reporting, on the disclosure practices of Polish listed companies // Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. – 2022. – Vol. 47. – Art. 100466. – DOI: 10.1016/j.intaccaudtax.2022.100466.
11. Cereola S. J., Nichols N. B., Street D. L. Geographic segment disclosures under IFRS 8: Changes in materiality and fineness by European, Australian and New Zealand blue chip companies // Research in Accounting Regulation. – 2017. – Vol. 29, No. 2. – P. 119–128. – DOI: 10.1016/j.racreg.2017.09.003.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 9**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100